



PISHLOQ MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISH VA QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA ASOSIY SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINING TAHLILI

Umarova Nilufar Abdukaxor qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0009-0646-4184
n42361502@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada pishloq mahsulotlarini ishlab chiqarish va korxonadagi yillik mahsulot hajmini o'rtacha ishlovchi xodimlar, pishloq mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalaridagi asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarining samaradorligini oshirish, fondlar qaytimini shakllantirishi, infratuzilmalarni tashkil etishi, asosiy fondalarni kengaytirishi, asosiy vositalarni ko'paytirish va mustaqil korxonalar sifatida faoliyat yuritishi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: pishloq mahsulotlari, raqobatbardoshlik, fondlar, samaradorlik ko'rsatkichlari, mehnat unumdorligi, pishloq mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash korxonalari.

АНАЛИЗ КЛЮЧЕВЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ПО ПРОИЗВОДСТВУ И ПЕРЕРАБОТКЕ СЫРА

Умарова Нилуфар Абдукаховаровна
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье рассматриваются работники, работающие на производстве сыра и среднегодовой объём производства предприятия, повышение эффективности основных показателей деятельности предприятий по производству и переработке сыра, формирование возврата денежных средств, организация инфраструктуры, расширение основных фондов, увеличение Основные средства заявлено, что оно будет увеличиваться и работать как самостоятельное предприятие..

Ключевые слова: сырная продукция, конкурентоспособность, фонды, показатели эффективности, производительность труда, производство сырной продукции, перерабатывающие предприятия.

ANALYSIS OF KEY PERFORMANCE INDICATORS IN CHEESE PRODUCTION AND PROCESSING ENTERPRISES

Umarova Nilufar Abdukakhor qizi
Tashkent State University of Economic

Annotation. In this article, the experience of foreign countries in increasing the competitiveness of food industry enterprises, innovative news in food industry enterprises, reforms aimed at the development of food industry enterprises in nationalism, existing problems, scientific researches and their results, statistical analyzes and the implementation of innovative solutions are presented in this article. a number of issues are scientifically described.

Key words: cheese products, competitiveness, funds, efficiency indicators, labor productivity, production of cheese products, processing enterprises.

Kirish.

Bugungi kunda pishloq mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirish hal qilinishi lozim bo'lgan masalalardan biri bo'lib, pishloq mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash sehlari, kichik, o'rta darajadagi korxonalari sutni qayta ishlash korxonalarini tarkibidan alohida ajralib chiqayotgan tarmoq sifatida faoliyatini olib bormoqda. Biroq, pishloq mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashga ixtisoslashgan yirik korxonalar sifatida mustaqil tarzda faoliyat yuritayotgan korxonalar salmog'i deyarli mamlakatimizda mavjud emas. Bunga sabab, hamon sutni qayta ishlash korxonalari tarkibida faoliyat yuritib kelayotganligi bo'lib, uni bartaraf etish uchun pishloq mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash korxonasi sifatida faoliyat olib borishi, korxonalarni asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari ya'ni mehnat unumdorligini oshirishi, fondlar qaytimini shakllantirishi, infratuzilmalarni tashkil etishi, asosiy fondalarni kengaytirishi, asosiy vositalarni ko'paytirish va mustaqil korxonalar sifatida faoliyat yuritishi talab etiladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizdagi pishloq mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalari va sehlarida mazkur muammolar mavjud. Mazkur muammolarni bartaraf etish va ularga yangi yechimlarni topish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishi doirasida Samarqand viloyatida joylashgan pishloq mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalari va sehlaridagi asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari ya'ni mehnat unumdorligi, fondlar qaytimi hamda asosiy fondlar ko'rsatkichlarining mavjud hozirgi holati o'rganib chiqilib, tahlil qilindi. Pishloq mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalari faoliyatini tahlil qilishdan asosiy maqsad, korxonalaridagi mavjud muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etishga qaratilgan quyidagi taklif va tavsiyalarni amaliyotga keng tatbiq etish hisoblanadi. Jumladan, mamlakatimizdagi pishloq mahsulotlarini yetishtirish hajmini oshirish, alohida mustaqil korxonalar sifatida ajralib chiqishiga yangi imkoniyatlarni yaratib berish, asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari ya'ni mehnat unumdorligi, fondlar qaytimi va asosiy fondlarni holatini baholash hamda yangi innovatsion yechimlarni ishlab chiqishga qaratilgan taklif va tavsiyalar bo'lib, ushbu yangi imkoniyatlarni amaliyotga tatbiq etish sohadagi muammolarni bartaraf etishga va yangi imkoniyatlarni yuzaga kelishiga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda har bir korxonada asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari korxonaning barqarorligini belgilab beruvchi eng yuqori ko'rsatkich sifatida baholanadi. Sababi, korxonada ishlab chiqarish, qayta ishlash, mehnat unumdorligi, fondlar qaytimi va asosiy fondlarni natijasi iqtisodiy samaradorlikni belgilab beradi.

Pishloq mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishda korxonada pishloq mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash, mehnat unumdorligi, fondlar qaytimi hamda asosiy fondlarining yakuniy natijasi baholanadi. Asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarining samaradorligi barqaror darajada bo'lishi bevosita, korxonadagi mehnat unumdorligi, fondlar qaytimi hamda asosiy fondlarining samaradorligiga bog'liq bo'ladi. Pishloq mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalaridagi mehnat unumdorligi, fondlar qaytimi hamda asosiy fondlarini tahlil qilish zamon talabi hisoblanadi. Korxonalarni ushbu ko'rsatkichlari tahlil qilinmasa, ularning iqtisodiy samaradorligini ham aniqlab bo'lmaydi.

Jumladan, pishloq mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalaridagi asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarining samaradorligini oshirishda eng muhim ko'rsatkichlardan biri sifatida mehnat unumdorligining ko'rsatkichlari tashkil etadi. Mehnat unumdorligining iqtisodiy ta'rifiga qaraydigan bo'lsak, mehnat unumdorligi deganda korxonalarda mehnat qilsih jarayonida odamlar ishining nafiligi, samarasi va mahsuldorligiga aytiladi. Demak, mehnat unumdorligi deganda korxonadagi mavjud ishchi kuchi, uning mehnati va samarali faoliyati tushunilar ekan. Mamlakatimizdagi pishloq mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalaridagi mehnat unumdorligini oshirish va uni rivojlantirish zamonaviy talablaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda mehnat unumdorligi xodimning biror bir vaqt oralig'i masalan soat, smena, oy, yil davomida ishlab chiqargan mahsulot salmog'i orqali aniqlandi.

Ishlab chiqarish korxonalarida mehnat unumdorligi asosan korxonaning yalpi, sof mahsulot ulushi hisobiga aniqlanadi.

Korxonadagi yillik mahsulot hajmini o'rtacha ishlovchi xodimlar soniga bo'lish orqali 1 nafar xodim hisobiga yetishtirilgan mahsulot hisoblanadi. Mehnat unumdorligining o'sishi mahsulot birligini ishlab chiqarishda mehnat sarfining kamayishi demakdir. Har bir korxonada xususan, pishloq mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida pishloq mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash jarayonidagi unumdorlikni oshirishda mehnat unumdorligining ko'rsatkichi yuqori baholanadi. Mehnat unumdorligisiz pishloq mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash jarayoni zamon talablari asosida rivojlanishdan ortda qoladi. Pishloq mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalaridagi mehnat unumdorligini oshirish, korxonalaridagi asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini yanada barqaror darajada rivojlanib borishiga xizmat qiladi.

Pishloq mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalaridagi asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini oshiruvchi yana bir muhim ko'rsatkichlardan biri asosiy vositalar bo'lib, bugungi kunda korxonalaridagi asosiy vositalardan foydalanish, asosiy vositalarning samaradorligiga baho berish, tahlil qilish hamda ularning samaradorligini aniqlash zamon talabi hisoblanadi. Pishloq mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalarida asosiy vositalarning holatini o'rganish bilan bir qatorda ularning asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini o'rganish ham muhim sanaladi.

Pishloq mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalarining mahsulot yetishtirish quvvati deganda, korxonaning to'liq ish jarayoni bilan bandligiga aytiladi. Mazkur jarayon nafaqat mahsulot ishlab chiqarish holatiga, balki korxonaning xarajatlar tarkibiga, moliyaviy imkoniyatlariga ham jiddiy ta'sir etadigan jarayon sifatida baholanadi. Korxonaning ishlab chiqarish imkoniyatlari va uning foydalanish holatlariga baho berish asosida pishloq korxonalarining amaldagi davrda iqtisodiy potentsiali hamda uni maqsadli boshqaruvini belgilab beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Dunyoning yetakchi xorijlik olimlardan Fagan, J. and Lin, X.Wang, Keller, A. and Müller, M.Juchniewicz, F.Nyamakwere, G.Esposito, K.Dzama, E.Raffrenato va A.Ogunyemi singari olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida Pishloq mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalarida asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarining tahlili qilishda bir qator ilmiy tadqiqotlar ishlari olib borilgan (Liu, Wang, 2022).

MDH olimlaridan Krutikov, Yakunina (2011), Orzuev (2011), kabi olimlar tomonidan oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishning yangi imkoniyatlari va iqtisodiy samaradorlikni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari tadqiq etilgan (Lukiewska, Juchniewicz, 2021).

Respublikamizdagi iqtisodchi olimlardan esa Salimov (2014), Burxanov (2018), Shodmonov, G'afurov (2005), Qobilov (2013), Yusupov va Xakimov (2022) larning ilmiy tadqiqot ishlarida oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulotlar sifatini oshirish, sanoat korxonalarini faoliyatini rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, raqobat munosabtlarini tartibga solish, oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish, oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, oziq-ovqat sanoati korxonalarini klaster tizimi asosida rivojlantirish, agrosanoat tizimini klaster tizimi asosida boshqarish hamda sutni qayta ishlash korxonalarini faoliyatini takomillashtirish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Jumladan N.M. Ziyavitdinovanning tadqiqotlarida oziq-ovqat sanoati korxonalarida bozor strategiyasini shakllantirishda, ularni rivojlantirish yo'nalishlarini ishlab chiqishda va tarmoq boshqaruvining tashkiliy tuzilishi takomillashtirilgan. Shuningdek, I.Y.Umarov tomonidan olib borilgan tadqiqotda oziq-ovqat sanoati iqtisodiy salohiyatini baholash bo'yicha uslubiy

yondashuv ishlab chiqilgan hamda tadqiq qilingan mintaqa oziq-ovqat sanoati korxonalarining moliyaviy iqtisodiy salohiyati baholash ishlari amalga oshirilgan (Liu, Wang, 2022).

Yuqorida keltirilgan xorijiy va maxalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida asosan pishloq mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalarida asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarining tahlili mavzusiga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Biroq, tadqiqot ishlarida oziq-ovqat sanoati korxonalarida ichida samaradorlik ko'rsatkichlarining tahlili va uni takomillashtirishga qaratilgan xorijiy tajribalar doir masalalar yoritilmagan va unga doir ilmiy tadqiqot ishlari bajarilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada muammoni o'rganish uchun mantiqiy fikrlash, tizimli yondashuv, iqtisodiy taqqoslash, statistik tahlil, kuzatuv va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan. Mavjud metodologik yondashuvlarga tayangan holda, maqolada Pishloq mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalarida asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarining tahlili mavzusida ilmiy tadqiqotlarni o'rganish asosida olib borilgan ilmiy natijalardan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Pishloq mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalarida samaradorlikni oshirish bo'yicha asosiy tahlil va natijalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Ishlab Chiqarish Samaradorligi

A. Texnologik Tahlil

Pishloq ishlab chiqarish jarayonida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish imkoniyatlari tahlil qilindi. Xususan, quyidagi texnologik o'zgarishlar kiritildi:

Avtomatlashtirilgan tizimlar: Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali xatoliklarni kamaytirish va mahsulot sifatini yaxshilash mumkin. Avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida mahsulotning bir hil va yuqori sifatini ta'minlashda ijobiy natijalar kuzatildi.

Modular ishlab chiqarish: Modular ishlab chiqarish texnologiyalari orqali ishlab chiqarish jarayonlarini moslashtirish va operatsion xarajatlarni kamaytirish imkoniyati yaratildi. Bunday texnologiyalar mahsulot ishlab chiqarish vaqtini qisqartirishga yordam beradi.

B. Ishlab Chiqarish Ko'rsatkichlari

O'rganilgan korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Misol uchun:

Mahsulot hajmi: Korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan pishloq mahsulotlari hajmi tahlil qilindi. Samaradorlikni oshirish uchun ishlab chiqarish hajmini oshirish maqsadida yangi texnologiyalar va usullar joriy etildi.

Xarajatlar: Ishlab chiqarish xarajatlari va ularning ta'siri tahlil qilindi. Xarajatlarni kamaytirish uchun resurslardan samarali foydalanish va energiya samaradorligini oshirishga e'tibor qaratildi.

2. Resurslardan Samarali Foydalanish

A. Energiya Samaradorligi Pishloq ishlab chiqarish jarayonida energiya resurslaridan samarali foydalanish natijalari tahlil qilindi. Energiya samaradorligini oshirish uchun quyidagi tadbirlar amalga oshirildi:

Energiyani qayta ishlash tizimlari: Ishlab chiqarish jarayonida energiya qayta ishlash tizimlari joriy etildi. Bu orqali energiya iste'molini kamaytirish va xarajatlarni qisqartirish mumkin bo'ldi.

Yashil texnologiyalar: Ekologik toza texnologiyalar va energiya samarali usullar yordamida resurslardan samarali foydalanish ta'minlandi.

B. Ishchi Kuchini Boshqarish

Ishchi kuchining samaradorligi va uning ta'siri tahlil qilindi. Ishchi kuchini boshqarish bo'yicha amalga oshirilgan choralar:

O'quv va malaka oshirish: Xodimlarning malakasini oshirish va ularni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga erishildi.

Ishlab chiqarish tashkiloti: Ishchi kuchining samarali tashkil etilishi va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligi oshirildi.

3. Mahsulot Sifati va Sifat Nazorati

A. Mahsulot Sifatini Baholash

Pishloq mahsulotlarining sifati va sifat nazorati tizimlari tahlil qilindi. Mahsulot sifatini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

Sifat nazorati: Mahsulot sifatini doimiy ravishda nazorat qilish va sifatni yaxshilash uchun zamonaviy sifat nazorati tizimlari joriy etildi.

Sifat ko'rsatkichlari: Pishloq mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlari (masalan, qadoqlash sifati, muvozanat, saqlash sharoitlari) tahlil qilindi va sifat nazorati tizimlari kuchaytirildi.

B. Mijozlar Tahlili

Mijozlarning ehtiyojlari va talablarini tahlil qilish orqali mahsulot sifati va xizmat ko'rsatish darajasi oshirildi. Mijozlar fikri va talablariga mos ravishda mahsulotlar takomillashtirildi.

4. Natijalar

Ishlab Chiqarish Samaradorligi: Yangi texnologiyalar va jarayonlarni optimallashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligi sezilarli darajada oshdi. Mahsulot hajmi va sifat ko'rsatkichlari yaxshilandi.

Resurslardan Foydalanish: Energiya samaradorligi oshirildi va resurslardan foydalanish samaradorligi ta'minlandi. Energiya sarfi va xarajatlar kamaytirildi.

Mahsulot Sifati: Mahsulot sifatining oshishi va sifat nazorati tizimlarining kuchayishi orqali mijozlarning qoniqishi yaxshilandi.

Ishchi Kuchining Samaradorligi: Ishchi kuchining malakasi va samaradorligi oshdi. Ishchi kuchini boshqarish va tashkil etish orqali ishlab chiqarish jarayonlari optimallashtirildi.

Umuman olganda, pishloq mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalarida samaradorlikni oshirish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar va strategiyalar ijobiy natijalar ko'rsatdi. Bunday yondashuvlar korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish va raqobatbardoshligini kuchaytirishga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishda xorijiy tajribalarni o'rganish zamon talabiga aylanib bormoqda. Xorijiy tajribalarni o'rganish sohani rivojlanishini ta'minlaydi. Mamlakatimizdagi oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish uchun yuqorida Yevropa davlatlarida tadbiq etilgan yangi innovatsion tajribalarni amaliyotga keng tatbiq etish eng muhim innovatsion yechimlar hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bugungi kunda mamlakatimizda pishloq mahsulotlarini yetishtirish hajmi tez sur'atlarda o'sib bormoqda. Bunga sabab aholini pishloq mahsulotlariga bo'lgan talabi ortib borayotganligi bo'lib, yangi pishloq turlarini ishlab chiqarishga ehtiyoj sezilmoqda.

Buning uchun esa pishloq mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar, zavodlardagi xalqaro tajribalar va yangi innovatsiyalarni o'rganish, dunyo reytingida top-100 talikka kiruvchi pishloq mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalaridagi mahsulot yetishtirish imkoniyatlarini tahlil qilish, xarajatlarni kamaytirish, pishloq mahsulotlarini ishlab chiqaradigan korxonalarni sutchilik tarkibidan chiqarib, alohida tarmoq sifatida rivojlantirish, pishloq mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar uchun yangi imtiyozlarni berish, ularni iqtisodiy jihatdan har tomonlama qo'llab-quvvatlash, raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan yangi

imkoniyatlarni yaratib berish, xalqaro tajribalarni amaliyotga keng joriy etish, sotish imkoniyatlarini kengaytirish, mahsulot hajmini oshirishga qaratilgan innovatsion yechimlarni ishlab chiqish, imtiyozli kreditlarni ajratish va mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan yangi dasturlarni korxonalariga tatbiq etish hal qilinishi lozim bo'lgan eng muhim masalalar hisoblanadi. Ushbu masalalarni amaliyotga tatbiq etish va ularni rivojlantirish pishloq mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish hajmini ortib borishiga hamda sotish imkoniyatlari yuqori sur'atlarda o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi. Yuqorida keltirilgan tavsiyalarni amaliyotga keng joriy etilishi natijasida, oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishning yangi imkoniyatlarini rivojlanishiga va oziq-ovqat sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini oshishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/ Lumeputya/ Reference:

Farmon (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvar.*

Liu Y., Wang X. (2022) "Promoting Competitiveness of Green Brand of Agricultural Products Based on Agricultural Industry Cluster," *Wireless Communications and Mobile Computing*, vol. 2022, Article ID 7824638, 2 page.

Lukiewska K., Juchniewicz M. (2021) *Identification of the Relationships between Competitive Potential and Competitive Position of the Food Industry in the European Union. Sustainability*, 13, 4160. <https://doi.org/10.3390/su13084160>.

The Future of Food Challenges & opportunities, (2022) *Deloitte Belgium ma'lumotlari.*

Бурханов А. (2018) "Саноат корхоналари молиявий барқарорлигини баҳолаш усули", "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, -с.3-4.

Крутиков К., Якунина М. (2011) *Региональный рынок мяса: конкурентоспособность предприятий и продукции. -М.: Ноосфера, - 160 с. Монография.*

Қобилов Ш. (2013) *Иқтисодиёт назарияси: Дарслик. - Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, - 268 б.*

Орзуев П. (2011) *Реструктуризация как инструмент экономического роста предприятий пищевой промышленности Республики Таджикистан специальность 08.00.05 - Экономика и управление народным хозяйством: Экономика, организация и управление предприятиями, отраслями, комплексами (промышленность) диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук Душанбе.*

Салимов Б., Юсупов М. (2014) "Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг рақобатбардошлиги ва экспорт салоҳиятини ошириш омиллари", "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, -с. 4.

Ҳакимов З. (2022) "Саноат кластерлари самарадорлигини таъминловчи омиллар тизими", "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (*Economics and Innovative Technologies*) *ilmiy elektron jurnali*, 1/2022 январь-февраль №00057 219-220 стр.

Шодмонов Ш., Фафуров У. (2005) *Иқтисодиёт назарияси (дарслик). - Т.: "Фан ва технология" нашриёти, -251 б.*